

## SUN'IY INTELLEKTNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*O'roqova Bahora Baxrom qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat  
O'zbek tili va adabiyoti Universiteti masofaviy ta'lim  
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
email. bahorafarmonova68@mail.com*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonida, axborot olish va kundalik hayotga tutgan o'rni yoritiladi. Shuningdek, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, yoshlar, texnologiya, ta'lim, raqamli rivojlanish, internet.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt inson hayotining muhim qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa yoshlar hayotida texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Sun'iy intellekt orqali bilim olish, ma'lumot izlash va kundalik muammolarni hal qilish yanada osonlashmoqda.

Sun'iy intellekt — bu kompyuter tizimlarini o'rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda sun'iy intellekt inson fikrlashiga o'xshash jarayonlarni avtomatlashtiradi. Masalan, ovozni tanish, yuzni aniqlash, matnlarni tarjima qilish yoki tavsiya berish kabi vazifalar sun'iy intellekt yordamida amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt bir necha asosiy yo'nalishlardan iborat. Mashinaviy o'rganish kompyuterlarning tajriba orqali o'rganishga asoslangan usul bo'lib, u ma'lumotlar asosida xulosa chiqaradi. Neyrontarmoqlar esa inson miyasi ishlash tamoyiliga o'xshash tarzda yaratilgan bo'lib, murakkab masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

ChatGPT asosan matnlar bilan ishlaydi, yaqinda suratlar generatsiyasi ham qo'shildi. ChatGPT ma'lumotlarni tezda tahlil qilib, matn tarzida davom etadi. Ikkinchi jihati unga bir maqolani yuklasangiz, faktcheking qilib beradi. Sun'iy intellektning yaratilishi barcha insonlarga qulaylik olib keldi. Yoshlar u bilan birgalikda kurslarga bormay turib til o'rganishi, yangi loyihalarni amalga oshirishi mumkin. U insonlarga yaxshi motivatsiya beradi, muloqotida hurmat tuyg'usi bor har qanday sharoitda sizga to'g'ri tavsiyalar beradi. Hatto uy bekalari uchun ham yordam bermoqda. Undan taom tayyorlash, bola tarbiyasiga doir tavsiyalar bermoqda. Sun'iy

intellekt terrorizmga qarshi kurash, global ochlik muammolarini hal etish, hatto tibbiyot sohasida ham qo'llanilmoqda. "Immunoterapiya sohasida erishilgan so'nggi yutuqlar, jumladan, saraton kasalligini davolash sun'iy intellekt tomonidan amalga oshirilmoqda", — deydi Brend Smit.

Shu bilan birgalikda, sun'iy intellekt media sohasiga shiddat bilan kirib keldi. Tasvir ustida ishlash, montaj qilish kabilarda qo'l kelmoqda. Chet elda shu darajaga chiqdiki, oynai jahonda sun'iy intellekt boshlovchilari paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari sun'iy intellekt imkoniyati cheklangan insonlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan: OrCam ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun sun'iy intellektga asoslangan qurilma bo'lib, u vizual ma'lumotlarni bir zumda ovoqli buyruqlar bilan uzatadi. "Kar-soqovlar uchun Google tarjimon" nomi bilan tanilgan GnoSys hisoblanadi. Bu ilova imo-ishoralarni matn va nutqqa bir zumda tarjima qilish uchun neyron tarmoqlar va kompyuter ko'rish qobiliyatidan foydalanadi.

Korxonalar, shuningdek, mijozlarni qo'llab-quvvatlashni yaxshilash uchun sun'iy intellektga asoslangan aqli texnologiyalardan foydalanadi. Masalan, sun'iy intellekt chatbotlari mijozlarga xizmat ko'rsatish guruhlariga nogironligi bo'lgan mijozlar bilan muloqot qilishda, ularning ehtiyojlarini osonroq tushunishda yordam beradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra 2030-yilda milliardlab insonlar yordamchi texnologiyalarga muhtoj bo'ladi.

Bundan tashqari, uning salbiy tomonlari ham bor. Masalan; u bir qator sohalarda ishchilar sonining qisqarishiga olib kelmoqda.

"Fast food restoranlaridan yegulik olmoqchi bo'lsangiz, mikrofon orqali bergan buyurtmangizni tinglab, ma'lumotni tizimga kiritadigan xodim xizmat ko'rsatadi. Nazarimda, yaqin 5 yil ichida ana shu xodim ishidan ayriladi. Chunki sizni to'liq tushunib, zarur ma'lumotni tizimga kiritishga qodir kompyuter dasturlari uning o'rnini egallashi aniq", — deydi Brend Smit. Ba'zi insonlar undan noto'g'ri foydalanib, shaxsiy hayotlariga oid ma'lumotlarni bermoqda. Lekin sun'iy intellektda sir saqlash tuyg'usi yo'q. Natijada bu ma'lumotlar ommaga tarqalishi mumkin. Shu bilan birgalikda sun'iy intellektning ba'zi jarayonlarda adolatsiz qaror qabul qilish holatlari ham kuzatilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sun'iy intellekt bugungi kunda hayotimizda ko'p qulayliklar olib keldi. U ta'lim, tibbiyot, axborot olish va kundalik faoliyatda katta qulayliklar yaratmoqda. Ayniqsa, yoshlar uchun bilim olish va o'z ustida ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq undan to'g'ri va oqilona foydalanish muhim, chunki noto'g'ri foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali jamiyatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Infocom

2. Javohir Yo'ldoshev "Sun'iy intellekt va uning hayotimizdagi ahamiyati" maqolasi
3. Karimova Mavluda "Ijtimoiy tarmoqlar va shaxsiyat" maqolasi
4. Kun.uz ma'lumotlari
5. Brend Smitning sun'iy intellektga doir ma'lumotlari